$$\eta_{ur} = \frac{\sum \eta_{yuk}}{n_{don}} = \frac{93,5 + 68,7 + 42,5 + 90 + 66,7 + 42,5 + 90 + 68,7 + 80,8 + 22 + 15,6 + 82,5}{20} = 69,28$$

Metal kesish dastgohlari miqdorlari keltirilgan jadval.

№	Dastgohlarning nomlari	sonlari
1	Tokarlik	3
2	Tokarlik	2
3	Tokarlik	1
4	Tokarlik	1
5	Parmalash	3
6	Tokarlik	1
7	Tokarlik	1
8	Tokarlik	2
9	Sidirish (protyajni	1
10	Tokarlik	1
11	Parmalash	1
12	Jilvirlash	3

IV. MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYA QISMI

Kirish

“Hayot faoliyat xavfsizligi” ning mehnatni va tabiat va atrof muhitni hamda fuqolarni muhofaza qilish fanlariga asoslangan qismi, ya’ni kirish qismida ijtimoiy- iqtisodiy masalalarni o‘z ichiga olib, ushbu muammolarni yechimini O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida “ gi qonunlari mehnat kodeksi, atrof muhitni muhofaza qilish qonunlari, favqulodda vaziyatlarda fuqoro muhofazasi qonunlari va ushbu sohalar bo‘yicha boshqa me‘yoriy hujjatlarda o‘z aksini topganligini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4.1. Texnologik jarayonlarni xavfsizligini ta’minlovchi vositalar

To‘qimachilik va yengil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari GOST 12.3.002-75 “Ishlab chiqarish jarayonlari”. Umumiy xavfsizlik talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.

Inson hayoti va sog‘ligiga doimiy yoki vaqti-vaqti bilan xavf tug‘diruvchi joy xavfli chegara yoki mintaqa deb ataladi. Bu asosan mashina va jihozlarning ochiq holdagi aylanadigan va harakatlanadigan qismlari, aylanadigan qirquvchi asboblari, zanjirli va tishli uzatmalar, harakatlanuvchi stanoklarning ishchi stollari, issiq yuzalar, zaharli kimyoviy moddalar va pardoqlashga ishlatiladigan kislota, ishqorlar va boshqa o‘yuvchi moddalar bilan ishlaydigan ish joylari, elektr tokidan foydalanishdagi ish o‘rinlari, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib yuradigan kranlar va mashinalarning harakat chegarasi doirasidagi xavfli mintaqalar shular jumlasiga kiradi.

Aylanuvchi qismlar bilan ishchilarning kiyimidan yoki sochidan ilintirib olishi mumkin bo‘lgan jihoz va uskunalarning atroflari ayniqsa o‘ta xavfli chegara hisoblanadi.

Shuningdek, jihoz va uskunalarda ishlaganda elektr tokidan zararlanish, issiqlik, elektomagnit, ionlashgan nurlar, shovqin, titrash, ultratovush, zaharli gazlar va bug‘lar ta’siriga tushib qolish ham xavfli chegaralar yoki mintaqalar qatoriga kiradi.

Qurilma va uskunalarda ishlayotganda qirqimlarining uchib ketishi, ishlayotgan asboblarning sinib har tomonga sachrab ketishi, detall yaxshi mahkamlanmaganligi hisobida ishlov berish jarayonida otilib ketishi natijasida ishchilarni jarohat olishi ham xavfli mintaqagalar qatoriga kiritiladi.

Xavfli mintaqalar doimiy, harakatlanuvchan va vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan turlarga bo'linadi.

A) Doimiy xavfli mintaqalarga qayishli, zanjirli va tishli uzatmalar, dastgohlarning qirqish qisimlari va harakatlanuvchi valiklari kiradi.

B) Harakatlanuvchan xavfli mintaqalarga esa prokat qilish stanlari, potok liniyalari, konveyerlar, qirqish joyi o'zgarib turadigan agregat dastgohlari va boshqalar kiradi.

V) Vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan xavfli mintaqalarga yuk ko'tarish kranlari, kran balkalar, tal va telferlar kiradi. Chunki bu qurilmalar ish joylarini doimiy o'zgartirib turadi va qaerda ish bajarayotgan bo'lsa, shu yerda xavfli mintaqaga vujudga keladi.

Xavfli mintaqalardan saqlanish vositalari va aslahalari ikki gruxga bo'linadi.

1. Jamoa muhofaza aslahalari, ishchilarni ionlanuvchi nurlardan, elektromagnit, magnit va elektr maydonlaridan, mexanik, kimyoviy biologik omillardan muhofazalovchi vositalar kiradi.

2. Shaxsiy muhofaza aslahalari, maxsus terini, nafas olish organlarini, qo'lni, yuzni, ko'zni, quloqni muhofaza qiluvchi vositalar va aslahalar kiradi.

Ishlab chiqarishning hamma soha va tarmoqlarida mehnat xavfsizligini oshirish, shikastlanish hamda zararlanishlarning oldini olish uchun maxsus texnik vositalari qo'llaniladi va ularga quyidagilar kiradi.

Muhofazalovchi to'siq vositalari.

To'siq vositalari ishchilarning ishlab chiqarishning xavfli mintaqalariga tushib qolishiga xalal beradigan qilib o'rnatiladi.

Asosan mashina va qurilmalarning aylanuvchi va harakatlanuvchi ta'sir doyralarida, qirqish va ishlov berish joylarini, elektr toki urishi xavfi bo'lgan va

har xil nurlanishlar bo'lishi mumkin bo'lgan xonalar, shuningdek havo muhitiga zararli moddalar chiqarayotgan joylar ham to'siq vositalari bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari qurilish tashkilotlarida, qurilish ishlari bajarilayotgan maydonlar kranlar o'rnatilgan mintaqalar, ishchilarning baland joylardagi ish o'rinlari, to'siq vositalari bilan ta'minlanishi shart.

4.2. Yuk ko'tarish va tashish ishlarida xavfsizlikni ta'minlash

Ishlab chiqarish korxonalarda yuklarni tashish va yuqoriga ko'tarish uchun ko'pgina mashina va mexanizmlar ishlatiladi. Tashuvchi mexanizmlar ikki turga bo'linadi:

a) Uzluksiz ishlaydigan - lentali transportyorlar, havo yordamida, rolganglar, tarnovlar yordamida ishlaydigan turlari mavjud.

b) Davriy ravishda ishlaydiganlarga - avtomobillar, avtopogruzchiklar, elektropogruzchiklar, temir yo'l vagonlari kiradi.

v) Yuqoriga yuk ko'taruvchi uskunalarga ko'prik kranlari, avtomobillarga o'rnatilgan aylanma kranlar, telfer, o'zi yurar aravachaga o'rnatilgan tal va boshqalar kiradi.

Yuk ko'tarish, tashish uskuna va mashinalari "Davlat kon tex nazorat"i idoralari tomonidan rasmiylashtirilgach, texnik ko'rikdan o'tgandan so'ng ishlatilishi mumkin. Texnik ko'rik to'liq – har uch yilda bir marta va qisman ko'rik esa - har 12 oyda bir marta o'tkazilishi shart hisoblanadi.

To'liq texnik ko'rikda - yuk ko'tarish mashinalari yaxshilab qarab chiqiladi, statik va dinamik sinovlardan o'tkaziladi.

Qisman texnik ko'rikda esa - statik va dinamik sinov o'tkazilmaydi.

Ko'rik paytida barcha mexanizm va elektr asboblari, xavfsizlik asboblari, tormoz qurilmalari, boshqarish jihozlari, signal beruvchi va yorituvchi asboblari ishlab turgan holatda tekshirib chiqiladi.

Statik sinov mashinaning yuk ko'tarish qobiliyatidan 25% ko'p yuk ortilgan holatda o'tkaziladi. Bunda, yerdan 20-30 sm yuqoriga ko'tarilib, 10 minut davomida ushlab turiladi va shundan so'ng qoldiq deformatsiyalar sin-chiklab tekshiriladi.

Dinamik sinov mashinaning yuk ko'tarish qobiliyatidan 10 foiz ko'p yuk bilan bir necha marta ko'tarib tushirib sinaladi.

Mashinalarning bevosita yuk ko'taruvchi moslamalari (stropalar, trosslar, zanjirlar, qisqichlar, ilgaklar) foydalanishga tushirilishidan oldin va har galgi sozlashdan so'ng, sinovdan o'tkazilishi shart. Sinov me'yordagi yuk ko'tarish qobiliyatidan 25% ko'p ortilgan holda bajariladi.

Po'lat arqonlar o'ramning har qadamidagi uzilgan simlar soniga va zanglash sababli diametrining kamayganligiga qarab, me'yoriga solishtirib, ishga yaroqliligi yoki yaroqsiz ekanligi aniqlanadi.

Po'lat arqon sim yoki zanjirlarni, oddiy sinalmagan simlar bilan ulab uzaytirib, ishlab chiqarishga qullash taqiqlanadi.

Yuk tuproq shag'al ostida bo'lsa yoki ustida boshqa narsalar bo'lsa, uni ko'tarish ko'tarish mumkin emas va yukni ko'tarilgan holda qoldirib (tanaffus yoki ish tugagach) ketish qat'iyan man qilinadi.

Mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun barcha mexanizmlarning ko'tarish tizimlari, "O'zsanoatkontexnazorat" tishkiloti tasdiqlagan liftlarni qurish va xavfsiz ishlatish qoidalariga muvofiq har bir ko'tarish tuzilmasi o'z pasportiga ega bo'lishi, unda tuzilmaning tavsifi (turi, qancha yuk ko'tara olishi, harakat tezligi va xokazo) ko'rsatilishi lozim. Bundan tashqari, tuzilmalarda o'tkazilgan tuzatish ishlari yozib boriladigan daftar hamda ruxsat etilgan chekli ish yuklanishi hamda navbatdagi sinov va "O'zdavtog'texnazorat"ga taqdim qilish muddatini ko'rsatuvchi o'chib ketmaydigan yozuv bo'lishi zarur.

Yuk ko'tarish mexanizmlarining soz holatda saqlanishiga va ulardan xavfsiz foydalanishga javobgarlik ana shu mexanizmlar ishlatiladigan korxona bo'linmasi yoki muhandis-texnik xodimi zimmasiga yuklatiladi. Bu xodim maxsus buyruq bilan tayinlanadi.

Yuk ko'tarish mexanizmlaridan xavfsiz foydalanish uchun, ayniqsa, ularning tayanch qismlari, arqon, tros, ilgak va boshqa qismlari kattaroq mustahkam zahira bilan tayyorlanadi.

Mexanizm va tuzilmalarda ularning imkoniyatidan og'irroq yuklarni, odamlar hamda begona (og'iligi aniq bo'lmagan) yuklarni ko'tarish, nosoz yuk ko'tarish mexanizmlari va tuzilmalaridan foydalanish man etiladi.

Yoshi 18 dan kichik bo'lmagan, o'qigan, yo'l-yo'riq olgan va malaka sinovidan (attestatsiyadan) o'tgan, shuningdek, tegishli guvohnomaga ega bo'lgan kishilar yuk ko'tarish tuzilmalari hamda mexanizmlarida ishlashga ruxsat etiladi.

Yuk ko'tarish va tashish vosittalarini xavfsiz ishlatishga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

a) Hamma aylanuvchi va harakatlanuvchi qismlari hamda mexanizmlari ishonchli to'siqqa ega bo'lishi;

b) Signalizatsiyasi, blokirovkali tormozlari ishonchli ishlashi kerak.

Omborxonalar va ayrim sexlardagi transportyor va konveyerlarning eng havfsiz harakat tezligi 0,2 m:s.dan oshmasligi zarur va tezlikni cheklab turish uchun, tezlik cheklagichlari bilan ta'minlanishi darkor.

Osma tashish tuzilmalari (elektr relslar, osma elektr shatakchilar, elektr poezdlar tasmali transportyorlar), odatda, ish o'rinlari hamda yo'laklar tepasida joylashtirilmasligi kerak va ular ishonchli himoya vositalari yordamida o'rnatilishi, tushib ketgan yukni tutib qola oldigan darajada mustahkam bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish korxonalarida yuklarni ortishtirish, taxlash va joylashtirish bilan bog'liq hamma yumushlar Mehnat haqidagi Konunlar asosida "Ortish-tushirish ishlari. Xavfsizlikning umumiy talablari"ga muvofiq belgilab qo'yilgan.

Ortish-tushirish ishlari ko'tarishtirish tuzilmalaridan foydalanib bajariladigan bo'lsa, korxona ma'muriyati ishlarning xavfsiz amlga oshirishligiga javobgar shaxsni tayinlaydi. Bu shaxs yukni ortish-tushirish va tashish vositalari hamda usullarning to'g'ri tanlanishini kuzatib turishi lozim. Bunday ishlar tajribali xodim rahbarligida olib boriladi. Bunday shaxslar "O'zdavkontekstnazorat" tashkilotlari vakili ishtirokida imtihondan o'tkazilib, maxsus guvohnomaga ega bo'lishlari shart hisoblanadi.

Ish beruvchi (brigadir, master) yuk tushiriladigan maydonchani tayyorlaydi, yuklarni ortish-tushirish oʻamda taxlash tartibi va usulini aniqlaydi, ishlarni xavfsiz bajarish yoʻllari va usullari yuzasidan yoʻl- yoʻriq beradi, mexanizm va kranlar bilan taʼminlaydi.

Ortish-tushirish ishlari asosan mexanizatsiyalashtirilgan usulda, yaʼni tushirgichlar yordamida, ishlar hajmi kichik boʻlganida esa kichik mexanizatsiyalar yordamida amalga oshiriladi.

-20 kg.dan ogʻir yuklar uchun, shuningdek, yuklarni 3 m dan balandga koʻtarishga ortish-tushirish ishlari mexanizatsiyalashtirilgan usulda amalga oshiriladi.

-500 kg.dan ogʻir yuklarni kranlar bilan ortish-tushirishga ruxsat etiladi.

-Yuklarni gorizantal yoʻnalishda tashish va ortish uchunpolda yuradigan transportdan foydalaniladi, bunday transport asosan, yuklarni texnologik jarayon boshlanadigan joyga va tayyor maxsulotni omborga tashib keltirishda foydalaniladi.

Yuklarni tugʻri mahkamlash ortish-tushirish ishlarining xavfsiz bajarishda katta ahamiyatga ega.

Agar yukni koʻchirish vaqtida zanjir va arqonlarning oʻz-oʻzidan yechilib yoki siljib ketish ehtimoli boʻlsa, yuklarni tushib ketishi, baxtsiz hodisalar yuz berishi mumkin.

Yuk koʻtarish mashinalari saqlovchiva blokirovkalovchi tuzilmalari bilan uskunalanishi shart hisoblanadi.

Kranlarga yuk koʻtarish imkoniyatini koʻrsatuvchi belgilar, signal asboblari (qoʻngʻiroq, gudok, sirena) kranlar kabinasidan tashqariga oʻrnatiladi. Barcha yuk koʻtarish mashinalarida ularning eng koʻp yuklanishi, tartib raqami va navbatdagi sinovdan oʻtkazilgan kuni haqida koʻrsatilishi kerak.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari juda murakkab va koʻp tarmoqli tashkilot boʻlib, qaramogʻida katta maydonlar mavjud. Tabiiyki bunday maydonlarda xom ashyo, tayyor mahsulot va yordamchi materiallarni bir yerdan ikkinchi yerga tashish uchun xilma-xil transport vositalari ishlatiladi.

4.3. Korxonalarning yong'in va portlash xavfi bo'yicha darajalari

Ishlab chiqarish jarayonlari yong'in va portlash xavfsizligi, ularni rejalashtirishda, GOST 12.1.004.-91 "Yong'in xavfsizligi umumiy ". Umumiy talablari va GOST 12.1.010-90 "Portlash xavfi". Umuiy qoidalariga muvofiq bo'lishi talab qilinadi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan uskuna va jihozlar, yong'in va portlab ketish jihatidan xavfsizdir. Ammo bu uskuna va jihozlar ishlab chiqarishning yong'in va portlash xavfi bo'yicha turiga mos ravishda to'g'ri tanlangandagina xavfsizlikni ta'minlay oladi.

Korxonalarning ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan xom ashyosi, tayyorlaydigan mahsuloti va joylashgan binosining loyihasini hisobga olib yong'in chiqishga, potlashga, yong'in chiqqan taqdirda uning tarqalishiga, shuningdek, yong'in va portlashning yetkazgan asorati va qurilish meyoriy qoidalari (SNiP 2-90-81) asoslanib, xavflilik darajasi belgilanadi.

- A darajali yong'in va portlashga xavfli korxonalar. Bular suyuqlik ta'sirida havodagi kislorod bilan birikish natijasida yonishi va potlashi mumkin bo'lgan moddalar, chaqnash harorati 28^0 S.gacha bo'lgan suyuqlik va gazlarni portlash imkoniyatini tug'dirishi mumkin bo'lgan korxonalari bo'lib, bosim 5 KP. gacha bo'lgishi kerak.

Bu darajaga oltingugurt, uglerod, efir, aseton ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

- B darajali portlash va yong'inga xavfli korxonalar. Ularga chaqnash harorati 28^0 S dan yuqori bo'lgan hamda ishlab chiqarish jarayonida chaqnash haroratigacha qizdirilgan suyuqliklar va changlar binoda bosim 5 KP. dan ko'proq miqdorda to'planib, portlovchi aralashma hosil qilishi mumkin bo'lgan korxonalar kiradi.

- V darajali korxonalarga yong'inga xavfli bo'lgan, bug', harorati bo'lgan suyuqliklar, shuningdek, bir-biri bilan, havodagi kislorod suv bilan birikkan holda yonuvchi moddalar va qattiq yonuvchi jismlar bilan ish olib boradigan korxonalar kiradi.

- G darajali korxonalar, yonmaydigan jism va materiallarga, qizdirib, cho'g'lantirib va eritib ishlov berish jarayonida issiqlik, uchqun va alangalar chiqishi mumkin bo'lgan, qattiq, suyuq, va gazsimon moddalar yoqilg'i sifatida ishlatiladigan korxonalar kiradi.

- D darajali korxonalarga, yonmaydigan jismlar va materiallarga sovuq ishlov beradigan korxonalar kiradi. Mashinasozlik sanoat korxonalari, qurilish sanoat korxonalari kiradi.

Yong'in va portlash darajasi korxonani loyihalash va ishga tushirish vaqtida har bir vazirlik tasdiqlagan ro'yxat bo'yicha aniqlanadi.

V. METODIK QISM.

5.1. O'quv reja va dasturni tahlilini qilish.

Kirish.

Respublika hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha lavhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Bu sharaflı vazifani bajarish o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Shu sababli yuksak malakali o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilayapti.

Rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekistonimiz, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon

andozlari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassalarida va kasb-hunar kollejlariida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash va zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish muommolariga qaratilgan bir necha

diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta'lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish ta'lim sohasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda.

Kasb-hunar kollejlarining yo'nalishi va ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimi ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'lanishi lozim. Buning uchun kasbiy ta'lim fani o'qituvchilari maxsus fanlarni o'qitish uslubiyotini, mutaxassislikning mahorat va amaliy ko'nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. Hozirgi kunda Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturidan kelib chiqqan holda va jahon andozalariga moslashuv ehtiyojidan kelib chiqqan holda kasbiy ta'lim o'qituvchi kadrlarning asosiy qismi yangi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, hamda tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasiga ega bo'lishi juda muhim. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Kasb ta'limi tamoyillari.

O'qitish tamoyillari-o'qitish nazariyasining boshlang'ich qoidalari bo'lib, o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda ularga amal qilishi kerak.

Kasb ta'limi tamoyillarini tizimlashtirishga bo'lgan yondashishlarda quyidagicha fikrlar bildirilgan.

M.N.Skatkin ta'lim tamoyillarini quyidagicha belgilaydi: ilmiylik, har tomonlamalik, hayot bilan aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, o'quv fanlari orasidagi o'zaro aloqadorlik, tabaqalashtirish, tizimlilik, joriylilik .

M.G.Ogorodnikov esa o'z tadqiqotlarida ilmiylilik, g'oyaviylik, tarixiylik, tizimlilik, nazariya va amaliyotning birligi, ta'limning hayot bilan aloqasi kabi ta'riflarni asosiy sifatida tamoyillarini ajratadi.

S.Ya.Batishev-kasb ta'limi mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan holda tasavvur etish kerak deb hisoblaydi va ta'limning quyidagi tamoyillarini belgilaydi: ilmiylik, tizimlilik va joriylilik, amaliy ta'lim bilan ishlab chiqarish mehnatining birligi .

V.A. Skakun – kasb ta'limi tamoyillarini quyidagicha talqin qiladi: ilmiylik va g'oyaviylik; ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligi; ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'limning bog'liqligi, politexnizm; malakali ishchilarni tayyorlash barcha tomonlarining bir-biriga aloqasi; ta'limning birligi va tabaqalanishi .

O'qitish tamoyillarining majmuasi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

faollik tamoyili; o'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi tamoyili; ko'rsatmalilik tamoyili; o'qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili; ilmiylik tamoyili; o'qitishda sistemalilik va izchillik tamoyili; o'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili; namunalardan foydalanish tamoyili; talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili; bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning puxta bo'lishi tamoyili; didaktik reduksiya tamoyili;

Faollik tamoyili - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ko'proq harakatlar qilishi kerak bo'lsin.

Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak, chunki talaba qandaydir ish bajarish ishni ongliroq ravishda o'zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o'rnashib qoladi. Buning natijasida talabalar bilimlarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtiradi va eslab qoladi hamda ularning qiziqishi ortadi. Ba'zi bir qobiliyatlarga esa, masalan mustaqillik va individual ravishda o'rganish kabi qobiliyatlarga faqat shu tarzda erishish mumkin xolos. Buning uchun, o'qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

O`qitishda nazariya bilan amaliyotni bog`liqligi -Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo`lib,ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog`langanligi sababli,bu bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o`zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo`llay bilish ham kerak.

Talabalarni amaliy faoliyatga tayirlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg`ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg`ulotlarda talabalar o`qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, bu bilimlarni mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar hamda ularni amalda qo`llanish ko`nikmalari va malakalarini hosil qiladi.

Ishlab chiqarish ta`limi talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir.Ular egallab olgan nazariy bilimlari asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko`nikmalari va malakalarini hosil qiladilar. Shu bilan birga nazariy bilim ham to`ldirilib,konkretlashtirilib boriladi.

O`qitishning ko`rsatmaliligi-o`qitishning ko`rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o`rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog`liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo`lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o`zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o`qitish jarayonida turli sezgilardan: ko`rish,eshitish,badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyumni qanchalik har tomonlama idrok qilinsa,talabalarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to`la va chuqur bo`ladi.

Ko`rsatmalilik bu bilimlarni yaxshiroq o`zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog`lanishiga yordam beradi.Mashg`ulotlarda turli xil ko`rsatmali qurollarni qo`llash talabalarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning diqqatini safarbar etadi. Shuning ko`rsatmalilik vositalari o`qitishning hamma bosqichlarida:talabalarning yangi materialni idrok qilishlarida,bilimlarni mustahkamlashda,tekshirish hamda amaliy faoliyatda va ishda qo`llashlarida,mehnat ko`nikmalari va malakalarini hosil qilishda tadbir

etiladi. Bilimlarni iloji boricha ko`rgazmali va real hayotga yaqin qilib tadbiq etish - bir tomondan tilning tushunarligini va o`qitish jarayonida audio-vezual vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchidan u bevosita ish jarayonida va real holatda o`qitishni talab etadi.

O`qitishning tushunarli bo`lishi –o`qitishning tushunarli bo`lish tamoyili o`rganilayotgan material mazmuni, hajmi va o`qitish metodlariga ko`ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlarini mos bo`lishini talab etadi.

O`qitishni tushunarli qilish degani uni oson qilishni bildirmaydi. Haddan tashqari oson materialni talabalar ortiqcha kuch-g'ayrat sarflamay o`zlashtirib oladilar. Ta`lim jarayonining borishida talabalar oldiga quyiladigan o`quv va mehnat topshiriqlarini izchillik bilan murakkablashtirib borish talabalarning aqliy imkoniyatlari va jismoniy kuchlarini rivojlantiradi. O`quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo`lishi kerakki, talabalar uni o`zlarining oldingi bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim.

S O`Z B O S H I

Metal kesish dastgohlari zavod asbob uskunalarining shunday turiki, unda barcha hozirgi zamon mashinalari, priborlari, asboblari va boshqa buyumlari ishlab chiqariladi. Shu sababli metal ukesish datgoh-larning soni ularning texnikaviy darajasi va holati mamlakatning ishlab chiqarish qudratini ko`rsatadi. 1959 yildan boshlab dunyodagi har qanday mamlakatdagidan ko`proq metal kesish stanoklari ishlab chiqariladi. vatanimiz stanoksozlik korxonalarida 1,5mingdan ortiq modeldagi metal kesish stanoklari o`zlashtirilda va seriyalab ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga stanoklarning sifati uzluksiz ravishda yaxshi-lanib bormoqda, dastgoxlar parkining strukturasi esa presizion, maxsus va agregataviy dastgoxlar, avtomatlar va programma asosida boshqariladigan stanoklar sonini oshirish tomoniga

o`zgarmoqda. Hozirgi vaqtda Navoiy stanoklari mashinasozlik va metall ishlash sanoatlari murakkab va noyob stanoklar takomillashgan avtomatik liniyalar bilan tobora ortib boruvchi ko`lamda ta`minlamoqdalar.

Mamlakatimiz metall kesish stanoklari ko`p miqdorda eksport qiluvchi mamlakat bo`lib qoldi. qushni mamlakatlar yordamida rivojlanayotgan mamlakatlarda vatanimiz stanoklari bilan jihozlangan bir qator mashinasozlik va metall ishlash korxonalari qurilmoqda. O`zbekiston stanoklari sanoati rivojlangan bir qancha mamlakatlarda bugunlik kunda keng ko`lamda e`tirof etilmoqda.

Mamlakatimiz xalq xo`jaligini rivojlantirishning besh yillik planida jilvirlash va uzil kesil ishlov berish stanoklari, yuqori va ayniqsa yuqori aniqlik bilan ishlaydigan stanoklar ishlab chiqarishni oshirish ko`zda tutilgan edi. Mashinasozlik uchun avtomatik va yarim avtomatik liniyalar ishlab chiqarishni bir necha baravar oshirish va ularni chetlarga import va eksport ilish rejalari ko`zda tutilmoqda. Sonli programma asosida boshqariladigan stanoklar ishlab chiqarish kamida Davr talabiga ko`ra 3 - 4 baravar oshirilishi, bunday stanoklar ish sifatini oshirish bilan bir qatorda ishchi kuchini tejash hamda ish haqini bir necha baravariga oshirish va mehnat unumdorligini yuqori ko`tarishga imkon beradi.

TOKARLIK-VINT QIRQISH DASTGOHINING ASOSIY UZELLARI VA ULARNING VAZIFASI.

Tokarlik dastgohlarning asosiy uzellari

Dastgoh shpendilining tuzilishi va vazifasi.

Tokarlik dastgohlarning xarakteristikasi.

Tokarlik vint qirqish dastgohi amalda bir tipli kampanovkaga ega bo`lgan, bunday kampanovkaga 1 k 62 dastgohi misol bo`la oladi. Uning asosiy uzellari jumlasiga stamina, oldingi babka (shpendelli), keskich , tutkich va fartuk supporti ketingi babka kiradi; oldingi bobkaga tezliklar qutisi, surishlar qutisi joylashtirilgan.

Stanina dastgohining barcha asosiy uzellarini o`rganish uchun xizmat qiladi va dastgohning asosi hisoblanadi. Dastgohning eng muhim qismi yo`naltiruvchilardir.

Yo'naltiruvchilar har xil shaklda: M yassi, prizmatik va kombinatsiyalashtirilgan shaklda bo'lishi mumkin. Support koretkasi va ketingi bobka ana shu yo'naltiruvchilar bo'lib so'raladi

Oldingi bobka stanining chapki qismiga mahkamlanadi. Oldingi bobkada dastgohning tezliklar qutisi joylashtirilgan. Tezliklar qutisining asosiy qismi shpindel.

Yo'naltiruvchi plita 12ga nisbatan bobkaning korpusi 13 ko'ndalang yo'nalishda vint 11 vositasida surila oladi. Bobka dastgohga uni bashmak 10 vositasida (ekssentrik orqali) siquvchi dasta yordamida mahkamlanadi. Bobka dastgohga qo'shimcha ravishda yanada puxtarroq qilib vint bilan mahkamlanadi. Pinol 3 markazi 1 bilan 1ga o'qiy yo'nalishda chamberak olti hamda vintaviy juft 4-6 vositasida suriladi.

Pinolni buralib ketishidan shponka tutib turadi. Pinol dasta 2 yordamida mahkamlanadi, dastaning vint suxarlar 7 va 8 ni silindrik kesikka keltiriladi. Ketingi bobka korpusida, masalan, parmalashda ketingi bobkaga o'rnatilgan parmaga mexanikaviy surish harakati uzatish uchun support bilan ulash qulfi bo'lishi mumkin.

Surishlar qutisi spindeldan yoki alohida yuritmadan surish vali 2 yoki surish vinti 1ga aylanma harakat uzatish, shuningdek, tegishli surishga erishish yoki rezba qirqishda muayyan qadam hosil qilish maqsadida aylanish chastotasini o'zgartirish uchun xizmat qiladi. Bunga surishlar qutisining uzatish nisbatini o'zgartirish yo'li bilan erishiladi. Surishlar qutisi almashtiriladigan shesternyalar bor gitrara vositasida dastgoh bilan bog'langan.

Fartuk surish vali va surish vintining aylanma harakatini supporting to'g'ri chizig'i ilgarilanma harakatiga aylantirish uchun mo'ljallangan.

Support kesuvchi asbobni mahkamlash va unga surish harakati berish uchun xizmat qiladi. Support stonina yo'naltiruvchilari bo'ylab suriluvchi koretkalar (pastki slazkalar) 1 dan, koretkalar 1 ning yo'naltiruvchilari bo'ylab ko'ndalang yo'nalishda, tayyorlanma o'qi tomon suriladigan ko'ndalang slazkalar 2 dan, beriluvchi qismi 4 dan iborat buraluvchi qismida yo'naltiruvchilar bo'ylab, keskich koretkasi (yuqori koretkalar) 3 harakatlanadi. koretkalarga ko'ndalang slazkalarga harakat avtomatik ravishda ham, dastagi usulda ham uzatilishi mumkin. Support 4ning buraluvchi qismini dastgoh markazlari chizig'iga nisbatan burchak hosil qiladigan tarzda o'rnatish mumkin.

Keskich koretkasi 3 burovchi qism yo'naltiruvchilari bo'ylab hulfaqat dastaki ravishda surilishi mumkin.

Supportda ketingi keskich tutgich bor, u ko'ndalang slazkalarga o'rnatiladi. Undan ariqchalar ochish uchun foydalaniladi.

Test savollari

1. ishlab berilayotgan detalning aylanish chastotasi qaysi ifoda orqali aniqlanadi?

a) $n = \frac{1000 \cdot v}{\pi \cdot D}$; v) $n = \frac{v \cdot D}{1000 \cdot \pi}$ s) $n = \frac{v \cdot \pi}{1000 \cdot D}$
d) $n = \frac{1000 \cdot \pi}{v \cdot D}$ e) $n = \frac{D \cdot \pi \cdot v}{1000}$; ay/ min

2. tokarlik dastgoxlarida surish tezligi o'lchov birligi?

a) mm/ oyl; v) m/sek; s) mm/s; d) m/oyl; e) m/mms

3. kesish chuqurligi o'lchov birligini ko'rsating?

a)mm; v) m s) m/mm d) mek e) sm.

4. silindrsimon sirtlarga ishlov berishda kesish chuqurli qanday aniqlanadi?

a) $t = \frac{D-d}{2}$ v) $t = \frac{d-D}{2}$; s) $t = \frac{D}{d \cdot 2}$; d) $t = \frac{d \cdot 2}{D}$; e) $t = \frac{d/2}{D}$

5. kesish jarayonida kesish rejimlariga kassi parametrlar kiradi?

a. v,s,t v) v,s,d c) v,s,d d) t, d,d e) s,t, d

6. kesish jarayonida sodir buladigan asosiy xarakat va surish xarakatlari birgalikda sanday xarakat deb nomlanadi?

a) bosh xarakat v) ish xarakat. s) yordamchi xarakat d) kushimcha xarakati

7. yordamchi xarakatga sanday xarakatlar kiradi?

a) ishlov berish jarayonidagi xarakatlar.

v) maxsulotni urnatish, ulchash, dastgoxdan chikarish va shunga uxshash tashkiliy xarakatlar

- s) ishlov berish tugagandan keyingi xarakat*
- d) boshqarish xarakatlari.*
- e) ish xarakatlari*

8. boshqarish xarakatlariga qanday xarakatlar kiradi?

- a) tayyor maxsulotni dastgoxdan xarakatlar.*
- v) dastgoxni yuritmasini urash, uzish, surish va tezliklarni ganlash kabi xarakatlar.*
- s) maxsulotni dastgoxga urnatish jarayonidagi xarakatlar.*
- d) dastgoxni nazorat qilish uchun kilingan xarakatlar.*
- e) tayyor bulgan detalni ulchashda kilingan xarakatlar.*

9. kirindi qanday xilda bo'ladi?

- a) detalni sindirganda uchib chiqqan bo'lagi.*
- v) xom ashyoni kesish jarayonida ajratilgan deformatsiyalangan ashyo katlamidir.*
- s) detalni kesishda deformatsiyasiz ajratilgan bo'lagi.*
- d) detalni toplashda tutilgan katlamga*
- e) detalni sikilish yoki cho'zilishda deformatsiya natijasida sinib chiqqan bo'lagi.*

10. detallarga ishlov berish jarayonida qanday sovitish suyuqligi ishlatiladi?

- a) mks v) mss s) stm d) msd e) smo

11. tokarlik dastgoxlari nechangi gurux dastgoxlar xisoblanadi?

- a) 4 gurux v) 2 gurux s) 1 gurux d) 6 gurux e) 4 gurux

12. 16 k 20 markali dastgoxda k nimani bildiradi?

- a) dastgoxni urnini. v) dastgoxning markasini s) dastgoxning takomillashganligi
- d) dastgox tuzilishini e) hech nimani anglatmaydi.

13. tokarlik dastgoxlari oshirilgan aniklikdagi sinflarga ajratishda qaysi xarflar bilan?

- a) a v) n d) e e) v

14. dastgoxning aniklik sinflari qaysi dastgox markasida tugri kursatilga?

- a) 16 kp 20, v) 16 p 20, s) 16k 20p, d) p16 k 20, e) kp 1620

15. dastgoxning aniqlik sinflari dastgox modelining shartli belgisidan qayerda yoziladi?

a) shartli belgi boshida v) shartli belgi urtasida s) shartli belgi oxirida d) bu aloxida kursatiladi. e) bu belgi umuman kursatilmaydi.

16. tokarlik dastgoxida staninaning vazifasi nima?

a) elektr dvigatel`ni tutish v) gipendel`ni ushlab turish s) orkangi babkani tutish d) dastgoxning barcha kismlarini biriktirish e) styurni tutib turish

17. shpendel xarakatni dastgoxdagi kaysi kutidan oladi?

a) surishlar kutisidan v) elektr dvigatel`dan s) surishlar gitarasidan d) tezliklar kutisidan e) tezliklar va surishlar kutisidan bir xilda ladi.

19 revers mexanizmini vazifasi nima?

a) xarakatni tezlatish v) xarakatni sekinlashtirish s) xarakatni shpendelga tugridan – tugri uzatish d) xarakatni meyorlash e) xarakatni teskari tomongan uzgartirish, yoki tugri yunaltirish va umuman xarakatni utkazmaslik uchun xizmat kiladi.

20. tokarlik dastgoxlarining kaerga joylashtirilgan norton mexanizmi?

a) tezliklar kutisiga v) elektr dvigatelidan s) surishlar kutisidan d) uzatmalar utisidan e) orkangi babkada

21. norton mexanizmining vazifasi nima?

a) tezlikni oshirish v) tezlikni sekinlashtirish s) shpendel`ni titrashdan saklash d) keyingi babkani rostlash e) buylama supportni yoki kundalang salazkalarini zarur kiymatga siljitishni taminlash.

22. supportni vazifasi nima?

a) keskichni tutishdan iborat v) maxsulotni tutishdan iborat s) tezliklar kutisidan surishlar kutisiga xarakat uzatishdan iborat d) surishlar kutisidan xarakatni olib surishlar gitarasiga uzatishdan iborat e) kesish jarayonida asbobni surish va uni zagatovkaga yakin keltirish va uzaklashtirish uchun xizmat kiladi.

23. dastgoxning qaysi qismi fartuk deb yuritiladi?

a) kirindi tushish qutisi v) oldingi babkaning bir qismi s) stanina va keyingi babka d) keskich tutgich qismi e) dastgoxning ishchi tomoni umumiy fartuk deb yuritiladi.

24. fartukning vazifasi nima?

- a) surish valiga xarakat uzatishdan iborat
- v) surish vintiga xarakat uzatishdan iborat
- s) fakat kundalang salazkagar xarakat uzatishdan iborat
- d) mexanizimlarni tutib turishdan iborat
- e) xarakatni surish valiga yoki surish vintidan bo'ylama

25. dastgoxning qaysi qismlari to'plami kinematik strukturasini tashkil kiladi?

- a) xarakat manbai, kinematik aloqa, revers ????
- v) xarakat manbai, xarakat tezligini sozlash organlari
- s) xarakat tezligini sozlash organlari, kinematik aloqa, revers mexanizmi
- d) xarakat manbai, kinematik aloqa, aks tomonga aylantirish.
- e) xarakat manbai, kinematik aloqa, xarakat tezligini sozlash organi, aks tomonga aylantirish mexanizmi.

Xulosa

Men o'zimning bitiruv malakaviy ishimda loyihalanishi kerak bo'lgan uchastkamda metal kesuvchi dastgohlarda ishlash sharoitini bir smenada necha soat ishlashi va unda ishlanish kerak bo'lgan detalning texnologik jarayonlarining borishi detalning sifatli bo'lishida kesish rejimi elementlarning ahamiyatini ishlangan detallarni nazorat qilish usullarini o'rganib oldim

Detalning materialiga ko'ratayyorlanma olish usulini o'rganish bilan birga detallarning sifatli va arzon chiqishida texnologik jarayonlarni to'g'ri tanlay bilishni kesuvchi asbob tanlash shu bilan birga detalni to'g'ri mahkam siljimaydigan qilib o'rnatadigan moslama tanlab uni hisoblashni bilib oldim.

Detal sifatiga undan kesib olinadigan qirindi qalinligi ta'sirini hisobga olib quymalarni hisoblash usulini o'rgandim. Tayyorlanma zavodda quyma usulda olingan endi men uni shtamplash usulida tayyorladim.

Quyma.

Tayyorlanma oddiy arzon va qulay bo'lsada material ko'p sarf bo'lishini hamda texnologik o'tishlarning ko'pligi sabab bu usulni shtamplash bilan almashtirib ham material tejamida dastgohida yuklanish kam tushadi. Shu mehnat kamayib quymadan tayyorlanma narxi qimmat turadi. Tayyor detal narxi arzon bo'lib ishchi kuchi tejaladi korxona fondi oshadi.

Shu bilan birga bitiruv malakaviy ishimda kasb-hunar kollejlari o'tiladigan fanlardan birini o'quv metodik majmuasini yaratib perepektiv taminotni reja yaratishni o'rgandim. Maxsus fanning vazirlig tomonidan tasdiqlangan ishchi o'quv rejasining tematik rejasini tuzib chiqdim.

Malakaviy bitiruv ishimda kasb-hunar kollejlari uchun maxsus fan o'qituvchilarning o'quv metodik majmuasini yaratdim. Unda metallar texnologiyasi fanning maqsad vazifalari nazariy va amaliy mashg'lot soatlari hamda darsni tahlil qilish va olib borish tartiblarini o'rganib perepektiv tematik planini tuzdim.

ADABIYOTLAR VA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
2. "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – 2001. – 3 – 15 b.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – 2001. – 17-52 b.
4. Abdullaev F.S., Zagidullin R.R. Bolg'alash shtamplash jihozlari. O'quv qo'llanma. ToshDTU. Toshkent 1996 y.
5. Bazarov B.M Osnovi texnologii mashinostroeniya.-M: "Mashinostroenie", 2005 g.-736 s.

6. Baydullaev A. Texnologik tizim elementlarini matematik modellashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1996 y.
7. Bartashevich A.A. Materialovedenie: Izd. "Feniks" Rostov-na-Donu, 2004 g. -352s.
8. Bursev i dr. Texnologiya mashinostroeniya v 2 – x tomax. M., MGTU im.N. Ye. Bauman, 1998 g.-563 s.
9. Bolotin X.L. Stanochnie prispособleniya. – M.: Mashinostroenie, 1993 g. – 276 s.
10. Jalilov H.I. Metallarni kesish nazariyasi asoslari, metall kesuvchi stanoklar va asboblar. T.: "Talqin" 2006 u.-175b.
11. Kostromin X.L., Novikov M.P. Osnovi konstruirovaniya stanochnix prispособleniy. – M.: "Mashinostroenie", 1996 g.– 340 s.
12. Molchanov G.N, Smetankin K.I, "Stanki s ChPU", T.: "O'qituvchi", 1993 g.
13. Mirboboyev V.A. "Konstruktsion materiallar texnologiyasi". T. "O'qituvchi". 2004 y.
14. Mirboboev V.A. Metallarni bosim bilan bilan ishlash texnologiyasi. T. "ILM ZIYO", 2006 y.
15. Mirboboev V. A. Metallshunoslik asoslari.T. "ILM ZIYO", 2006 y.
16. Nosirov I. Materialshunoslik. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. T.: "O'zbekiston" 2001 y. - 352 b.
17. Omirov A.Y. va Qaymov A.X. Mashinasozlik texnologiyasi. T., "O'zbekiston", 2003 y., 384 b.
18. Osnovi avtomatizirovannogo proektirovaniya. M.: Izdatelstvo MGTU imeni N.E Bauman, 2002 g.-333 s.
19. Peregudov L.V., Xashimov A.N., Shalagurov I.K., Neregudov S.L. Avtomatlashtirilgan korxona stanoklari. Toshkent.: "O'zbekiston", 2001 y.-496s.
20. Proektirovanie metalloremontnykh stankov i stanochnix sistem. V 3-x t. T.37 Pod red. A.S.Pronikova.-M.:Izd. MVTU im.N.E.Bauman i MGGU "Stankin". 2000 g.-584s

21. Suslov A.G. Texnologiya mashinostroeniya. – M: “Mashinostroenie”, 2004 g.-400s.
22. Fayzimatov B.N., Mirzaev A.A. Materiallarni kesib ishlash asoslari.- Farg‘ona: “Texnika”, 2003 y.-194 b.
23. Fayziev R.R.Metrologiya, o‘zaro almashuvchanlik, standartlashtirish. T.: “Mehnat”, 2005. 358 b.
24. Fedin Ye.I., Kuznesov V.P., Yamnikov A.S. Proektirovanie sxem texnologicheskix naladok na operasii mexanicheskoy obrabotki rezaniem.-Tula: Izd. TulGTU, 2005g.-116s.
25. Qayumov A., Kabulov M. Mexanika – yiguv sexlarini loyihalash. T.- “Fan va texnologiya”-2007 u. 210 b.
26. www.Ziyo.net
27. www.tdpu.Uz
28. www.pedagog.Uz
29. www.edu.Uz

Mundarija

KIRISH	
I. TEKNOLOGIK QISMI	
1.1. Detalning konstruksiyasi va xizmat vazifasi.....	
1.2. Chizmaning texnik nazorati.....	
1.3. Detalning texnologiyasozligi tahlili.....	
1.4. Ishlab chiqarishni tashkil etish tipini aniqlash.....	
1.5. Detal uchun tayyorlanma tanlash va asoslash.....	
1.6. Mexanik ishlov berish marshrutini ishlab chiqish.....	
1.7. Texnologik operatsiyalarni loyihalash.....	
1.8. Quyimlarni hisoblash.....	
1.9. Kesish rejimlarini hisoblash.....	

1.10.	Texnologik jihozlarini tanlash.....	
1.11.	Texnik me'yorlash.....	
II.	KONSTRUKTORLIK QISMI.....	
2.1.	Dastgoh moslamasini ishlab chiqish va hisoblash.....	
2.2.	Nazorat asbobini loyihalash.....	
2.3.	Maxsus kesish asbobini loyihalash.....	
III.	TASHKILIY QISM.....	
3.1.	Jihozlarning miqdorini aniqlash.....	
IV.	MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYA QISMI.....	
4.1.	Texnologik jarayonlarni xavfsizligini ta'minlovchi vositalar.....	
4.2.	Yuk ko'tarish va tashish ishlarida xavfsizlikni ta'minlash.....	
4.3.	Korxonalarning yong'in va portlash xavfi bo'yicha darajalari.....	
V.	METODIK QISM.....	
5.1.	O'quv reja va dasturni tahlilini qilish.....	
5.2.	Mavzuning perspektiv – tematik rejasi.....	
5.3.	Nazariy dars kospekti.....	
	XULOSA.....	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	